

Date: 21stFebruary-2025

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XO‘JAYLI TUMANIDA
QO‘YLARNING ICHAK SESTODOZLARI: TARQALISHI, DIAGNOSTIKASI VA
PROFILAKTIKASI**

Esimbetov Adilbay Tlepovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. Professor.

Avezimbetov Shavkat

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, dotsent.

Bauaddinov Kamaladdin Karamaddinovich

Magistrant.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanida 2024-2025-yillarda qo‘ylarning ichak sestodozlari bilan zararlanishi, uning epizootologik xususiyatlari va profilaktik tadbirlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida monieziyozning yosh guruhlariga bog‘liq holda tarqalishi, kasallikning intensivligi va ekstensivligi o‘rganildi. Shuningdek, diagnostika usullari, samarali antiparazitar preparatlar va oldini olish choralari tavsiya qilinadi. Olingan natijalar veterinariya amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘ylar, ichak sestodozlari, monieziyoz, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xo‘jayli tumani, epizootologiya, veterinariya, diagnostika, profilaktika, parazitologiya, antiparazitar vositalar.

Adabiyot ma‘lumotlari bo‘yicha Moniezia avlodining 10 dan ortiq turi ma‘lum. Ular esa uy va yovvoyi mayda va yirik shoxli hayvonlarda parazitlik qiladi. Anoplocephalata kenja turkumining ikkinchi oilasi Avitellinidae Spassky, 1950 bo‘lib hisoblanadi. Unga uchta avlod kiradi. Ulardan biri Avitellina Gough, 1911 avlodi bo‘lib, unga uy va yovvoyi o‘txo‘r juft tuyoqli sut emizuvchilarning 13 turga oid ichak sestodlari kiradi. Ikkinchi Thyzaniezia Skrjabin, 1926 avlodi bitta yakkayu- yagona turga ega, Stilesia Railliet, 1896 avlodining hozircha qo‘ylarda parazitlik qiluvchi bitta turi ma‘lum.

O‘zbekiston hududida Moniezia avlodi vakillaridan 3 tur sestodning parazitlik qilishi aniqlangan. Ularga Moniezia expansa (Rudolphi,1810), Moniezia benedeni (Moniez, 1879) va Moniezia autumnalia Kuznetsov, 1967 turlari kiradi.

Avitellina avlodi vakillaridan qo‘ylarda bir tur - Avitellina centripunctata (Rivolta, 1874) sestodi, Stilesia avlodidan - Stilesia globipunctata (Rivolta, 1874) ning uchrashi qayd qilingan. (M.A.Sultonov, D.A.Azimov, B.I.Textin, P.A.Muminov, 1975)

Moniezia avlodining M.expansa va M. benedeni turlari dunyoda eng keng tarqalgan sestodlar bo‘lib hisoblanadi. M.autumnalianing esa u yoki bu ma‘lumotlarga ko‘ra ayrim hududlarda uchrashi ma‘lum.



Date: 21stFebruary-2025

Qo‘ylar moneziyozini davolashda M.V. Arisov 0,5 va 1,0 foizli kuprofer hamda 1,0 foizli mis kuporosi eritmasidan foydalangan. 0,5 foizli kuprofer preparati 50-60 foiz, mis kuporosi 50,0 foiz, 1,0 foizli kuprofer preparati moneziyozga qarshi 100 foiz samara bergan. Boshqa bir tajribada qo‘zilarning moneziyoziga qarshi 2,5 foizli albendazol suspenziyasi 0,1 ml/kg-0,15 ml/kg va 0,2 ml/kg miqdorda qo‘llanilganda preparat 0,2 mg/kg miqdorda berilgan qo‘zilar 100 foiz moneziyalardan holi bo‘lgan, qolgan holatlarda uning samaradorligi 60-80 foizni tashkil qilgan.

V.M. Kuznetsov (2004) Rossiyaning Moskva viloyatida qo‘ylar moneziyozining epizootologik xususiyatlarini o‘rganish jarayonida ushbu hududda M. benedeni va M.expansa larning tarqalganligini, M.autumnalia ning esa uchramasligini aniqlagan. Uning ma’lumotigi ko‘ra M.expansa 3-6 oylik qo‘zilarda asosan may-dekabr oylarida uchraydi. 7-12 oylik qo‘zilar ushbu tur moneziya bilan ham kam darajada (7,0-20,0 foiz) zararlanadi. M. benedeni bilan qo‘zilar 5-6 oylikdan boshlab zararlanadi, ularda invaziya ekstinsivlik darajasi 100 foizga, invaziya intensivlik darajasi 1-14 nusxa parazitga teng. Shunday qilib Moskva viloyati sharoitida qo‘zilar dastlab M.expansa bilan, ikki oy o‘tgach esa M. benedeni bilan zararlanib boradi. Rossiya sharoitida aynan shunday xulosaga M.V.Kuznetsov ham 1955 yilda kelgan edi. M.V.Kuznetsov Moskva viloyati sharoitida qora mollar (*Bos taurus*) ni ko‘proq M.autumnalia bilan, ayrim hollarda M. benedeni bilan zararlanishini, M.expansani esa ushbu tur hayvonda voyaga etmasligini ko‘rsatib o‘tgan. Shu bilan birga M. benedeni ni qoramollarga kam miqdorda yuqishi bilan uning voyaga etganlarida jinsiy mahsulotni past darajada bo‘lishini ham muallif qayd qilib o‘tgan.

Tadqiqotlar kasallikdan o‘lgan yoki majburiy hamda go‘sht mahsuloti olish uchun so‘yilgan qo‘ylarning ingichka bo‘lim ichaklarida joylarda yoki “Hayvonlar kasalliklari va parazitologiya” kafedrasining ilmiy – tadqiqot laboratoriyasida akademik K.I.Skryabinning ichki organlarining alohida to‘liq gelmintologik yorish usulida tekshirildi. Ichakda topilgan barcha sestodlar toza suvda yuvib olinib, maxsus shisha idishlarga solindi. Har bir sestodning skoleksi, bo‘yinchasi va strobilasidagi bo‘g‘imlarning shakli, hajmi, yetilgan bo‘g‘imlardagi tuxumlari yoki pillalari alohida makroskopik va mikroskopik usullar yordamida o‘rganildi. Ularning turlari aniqlangach 70 foizli spirtda yoki 3.0 foizli Barbagallo suyuqligida saqlandi.

Gelmintoovoskopiya usulida qo‘ylarning to‘g‘ri ichakdan olingan 5-10g tezak namunalar ikki xil usulda tekshirildi. Birinchi va asosiy usul – Fyulleborn usuli. Ushbu usul sestodlarning turli yoki pillalari (kapsulalari) ni to‘yingan osh tuzi eritmasi yuzasiga qalqib chiqishiga asoslangan. Ikkinchi usul- sestodlarning tuxum yoki pillalarini tezak namunalarini ketma-ket yuvish usulida tayyorlangan tiniq cho‘kma ostiga cho‘ktirishga qaratilgan. Adabiy manbalarida ichak sestodlariga hayvonning tirikligida tezak namunalarini (gelmintoskopiya usulidan tashqari) Fyulleborn usulida tekshirishga asoslangan.

Bizlarning tadqiqotlarimiz, bir tomondan qo‘ylarni ichak sestodlari- monieziyalar, tizanieziya, avitellina va stileziyalar bilan zararlanishini o‘rganishga, ikkinchi tomondan



Date: 21stFebruary-2025

esa, monieziozning qo'zg'atuvchilarini tur tarkibini, tarqalishini, mavsumiy va qo'ylar yoshiga ko'ra o'zgarishini o'rganishga qaratilgan. Qo'ylarning ichak sestodlarini o'rganish Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Oqdaryo, Payariq, Pstdarg'om kabi sug'oriladigan, Urgut, Nurobod tumanlarining tog'oldi-tog' va Nurobod tumanining cho'l-yaylov biotsenozlarida saqlanadigan qo'ylarda olib borildi.

Ushbu masala bo'yicha tadqiqotlar viloyatning sug'oriladigan, tog'oldi-tog' va cho'l-yaylov biotsenozlarida turli yoshdagi 62 bosh qo'ylarni ingichka ichaklarini to'liq gelmintologik yorish va ularda parazitlik qiluvchi sestodlarning turini va sonini, shunga ko'ra qo'ylarni ular bilan zararlanishining invaziya ekstensivlik va invaziya intensivlik darajalarini, monieziozning epizootologiyasida *M.expansa* va *M.benedeni* larning ahamiyatini aniqlash maqsadida olib borildi. Bunda qo'ylarning ingichka ichagida topilgan yangi tur monieziyalar e'tiborga olinadi, chunki ularning epizootologik xususiyatini o'rganish uchun alohida tadqiqotlar olib borilishi talab qilinadi. Adabiyot ma'lumotlarida esa qo'ylar monieziozning epizootologiyasi aynan *M.expansa* va *M.benedeni* ni qo'zg'atadigan monieziozga qaratilgan va ushbu turlar bilan qo'ylarning zararlanish muddatlari turlicha tahlil qilingan.

Samarqand viloyati sharoitida qo'ylarning moniezioz qo'zg'atuvchilari bilan zararlanishining invaziya ekstensivlik darajasi ko'rsatkichlari keltirilgan.

Gelmintologik yorish yo'li bilan qo'ylarning moniezioz qo'zg'atuvchilar bilan zararlanganligi.

№	Tekshirilgan qo'ylar bosh soni	Monieziyalar bilan zararlangan		Shu jumladan					
				M.expansa bilan toza holda		M.benedeni bilan toza holda		M.expansa va M.benedeni bilan aralash holda	
		Bosh sonida	foizda	Bosh sonida	foizda	Bosh sonida	foizda	Bosh sonida	Foizda
1	62	22	35.5	11	17.7	7	11.3	4	6.5

Jadvaldagi raqamlardan ko'rinib turibdiki tadqiqotlarimiz viloyatning sug'oriladigan tekislik, tog'oldi-tog' va cho'l-yaylov zonalarida qo'ylarning o'rtacha 35,5 foiz monieziozga chalinganligini ko'rsatib turibdi. Tekshirilgan qo'ylarning 11 boshida yoki 17,7 foizida *M.expansa* toza holda uchradi. 7 bosh qo'ylarda esa faqat (11,3 foiz) *M.benedeni* ning parazitlik qilishi aniqlandi. 4 bosh monieziozga chalingan qo'ylarda (6,5 foiz) har ikkala tur monieziyalar topildi. Ushbu epizootologik ma'lumotlar hozirgi paytda Samarqand viloyati sharoitida qo'ylar monieziozning asosiy qo'zg'atuvchisini, talaygina holatlarda *M.expansa* sestodi ekanligini ko'rsatib turibdi. Ushbu tur parazitning soni jami 15 bosh *M.expansa* bilan zararlangan qo'ylarda 132 nusxani tashkil qiladi, bu esa uning o'rtacha invaziya intensivligini 8,8 nusxaga teng ekanligini ko'rsatib turibdi. *M.benedeni*



Date: 21stFebruary-2025

ning jami 11 bosh qo'ylarda topilgan soni 76 nusxani tashkil qildi, shunga ko'ra ushbu sestodning invaziya intensivligi o'rtacha 6,9 nusxani tashkil qildi. Bu raqamlar hozirgi paytda viloyat hududlarida monieziozning. *M.expansa* qo'zg'atadigan, *M.benedeni* qo'zg'atadigan va ular birgalikda uchraydigan o'choqlari mavjudligini aniq ko'rsatib turibdi, ular orasida esa *M.expansa* o'choqlari biroz kengroq va kuchliroqdir. Lekin ushbu sestodlarning morfologik jihatlarini e'tiborga olsak, *M.benedeni* ning o'choqlari *M.expansa* nikiga qaraganda xavfli, chunki ushbu tur monieziozning strobilasi *M.expansa* nikiga qaraganda juda enli bo'ladi (22-24 mm gacha) va shu tufayli qo'zilarining ichagini tezda to'sib qo'yadi.

Har ikkala tur monieziyalarning oraliq xo'jayinlari tuproqda hayot kechiruvchi oribatid kanalari bo'lsayu, qaysi ekologik omil ta'sirida ular qo'ylarni dastlab *M.expansa* bilan, 2,5 oy o'tgach *M.benedeni* bilan zararlantirishi mumkin? Bunday holat ushbu kanalarning biologiyasiga, ekologiyasiga, monieziyalarning sistitserkoidlarini yetilishiga mos emas.

Ushbu masala bo'yicha X.Juraev (1972) Qashqadaryo viloyatining cho'l-yaylov sharoitida bir yoshgacha bo'lgan qo'zilarni bahorda 96 foiz *M.expansa* bilan, 92 foiz *M.benedeni* bilan zararlantirishini, katta yoshdagi qo'ylarda monieziozni kam darajada uchrashini, ammo ularni ham maksimal darajada bahorda invazyalanishini aniqlagan. Muallifning monieziozning epizootologiyasiga oid bunday ma'lumotlari bizlarning ushbu masalaga oid tadqiqotlarimiz natijalariga juda ham yaqin. Sh.A.Jabborov (2005) esa X.Jo'raevning bunday ma'lumotlariga qarshi ularoq Qashqadaryo viloyatining cho'l mintaqasida monieziozning uchramasligi to'g'risida fikr yuritadi. Bu albatta, fan va amalyot uchun mutloq noto'g'ri fikrdir, chunki O'zVITI da 1994-1996 yillarda qo'ylar monieziozi bo'yicha nomzodlik dissertatsiya ishini bajargan U.E. Temurov Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarida olib borgan tadqiqotlari bo'yicha moniezioz sug'oriladigan va tog'oldi-tog' zonalariga nisbatan cho'l-yaylov zonada ko'proq tarqalgan uning qo'zg'atuvchisining oraliq xo'jayinlari- oribatid kanalari ham topilgan.

Ayrim tadqiqotchilar (I.X.Irgashev,1973) O'zbekiston sharoitida *M.expansa* va *M.benedeni* larni yil bo'yi uchrashini aniqlagan bo'lsalarda, sug'oriladigan zonada *M.expansa* bilan zararlantirish yozda ko'zatlilmaydi, katta yoshdagi qo'ylarda ushbu zonada yozda *M.benedeni* ni qo'ylar organizmidan o'z-o'zidan tushib ketishi ko'zatliladi deb yozishgan. Bunday ma'lumotlar ilmiy jihatdan asoslanishni talab qiladi.

Adabiyot manbalarida monieziozning qo'ylar yoshiga ko'ra o'zgarishi to'g'risida bir-biriga zid bo'lgan ma'lumotlar ham uchraydi. Masalan M.Mardiev (1967) monieziozga chalinish qo'ylar yoshiga ko'ra o'sa boradi deb ko'rsatgan bo'lsa, Sh.A.Azimov (1974), I.X.Irgashev, T.Abduraxmanov (1992) lar buning aksini yozishgan. Bizlarning tadqiqotlarda ham monieziozning invaziya ekstensivligini bir yoshgacha bo'lgan qo'zilarda eng yuqori bo'lishi, bir yoshdan ikki yoshgacha bshlgan qo'ylarda keskin pasayishi, katta yoshdagi qo'ylarda esa juda ham kam uchrashi ko'zatlildi. Masalan, *M.expansa* qo'zg'atadigan monieziozning toza o'chog'ida oyma-oy gelmintoskopik tekshirish o'tkazish paytida qo'zilarning tezaklari bilan *M.expansa* ning bo'g'inlarini



Date: 21stFebruary-2025

ajralib tushishi ko'zatiladi, bunday holat katta yoshdagi ona qo'ylarda biror marta ham qayd qilinmadi. Albatta bu kabi muhim epizootologik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar *M.benedeni* uchraydigan, yoki har ikkala tur monieziyalar tarqalgan hududlarda sinchiklab o'rganilishi zarur.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida qo'ylarning ichak sestodozlari bilan zararlanishi yoshga va mavsumiy omillarga bog'liq holda o'zgaradi. Bir yoshgacha bo'lgan qo'zilarida monieziozning yuqori ekstensivligi qayd etildi, ayniqsa bahor va kuz oylarida kasallikning tarqalishi sezilarli darajada oshadi. Katta yoshdagi qo'ylarda esa zararlanish darajasi nisbatan past bo'ldi. Tadqiqot davomida Moniezia expansa va Moniezia benedeni parazitlarining tarqalishi va invaziya intensivligi aniqlandi. Shuningdek, turli diagnostik usullar, jumladan, Fyulleborn usuli va gelmintoovoskopiya usullari yordamida parazitlar aniqlanib, ushbu usullarning samaradorligi taqqoslandi.

Muhokama va munozara. Olingan natijalar avvalgi ilmiy manbalardagi ma'lumotlar bilan qiyoslanganda, ichak sestodozlarining tarqalishi bo'yicha ayrim tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, oldingi tadqiqotlarda *M. expansa* va *M. benedeni* qo'zilarida yilning turli davrlarida uchrashi qayd etilgan bo'lsa, ushbu tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bahor va kuz oylarida kasallik eng yuqori darajaga yetadi. Bunga iqlim sharoitlarining o'zgarishi va oribatid kanalarining biologik sikli ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, boshqa tadqiqotlarda *M. expansa* va *M. benedeni* larning o'z-o'zidan yo'qolishi yoki faqat ayrim yosh guruhlarida uchrashi qayd etilgan bo'lsa, bu tadqiqotlar natijalari ushbu parazitlarning barcha yosh guruhlarida uchrashini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, veterinariya amaliyotida qo'llanilayotgan anthelmintik dorilar samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turli preparatlarning monieziozga qarshi samaradorligi farqlanadi va ba'zi hollarda yuqori invaziya intensivligi tufayli qo'shimcha profilaktika choralarini qo'llash talab etiladi.

Xulosa. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida qo'ylarning ichak sestodozlari, xususan moniezioz kasalligi keng tarqalgan bo'lib, uning epizootologik xususiyatlari yosh va mavsumiy omillarga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bahor va kuz oylarida kasallik yuqori darajada tarqaladi, shuning uchun ushbu davrlarda maxsus profilaktika choralarini kuchaytirish zarur. Zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanish va veterinariya amaliyotida samarali antiparazitar dorilarni qo'llash orqali kasallikning oldini olish mumkin.

Amaliyotga tavsiyalar:

1. Profilaktik davolash – qo'ylarni bahor va kuz oylarida muntazam ravishda anthelmintik preparatlar bilan davolash tavsiya etiladi.
2. Veterinariya nazorati – har bir xo'jalikda ichak parazitlariga qarshi reja asosida diagnostik tekshiruvlar o'tkazilishi lozim.
3. Oziqlanish va gigiyena – yaylovlarni gigiyenik nazoratdan o'tkazish, hayvonlarning oziq-ovqat manbalarini tekshirish va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.



Date: 21stFebruary-2025

4. Ekologik choralar – oribatid kanalarining faolligini kamaytirish uchun yaylovlarda sanitariya tadbirlarini amalga oshirish lozim.

5. Ilmiy tadqiqotlar – ichak parazitlari tarkibini chuqurroq o‘rganish va yangi diagnostik usullarni ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish tavsiya etiladi.

Ushbu tavsiyalar chorvachilik xo‘jaliklarida qo‘ylarning sog‘lig‘ini yaxshilash, mahsuldorlikni oshirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдиев Т, Сувонкулов У, Коваленко Д, Абдиев Ф, Арзиев Х. Распространенность гельминтозов в Узбекистане. Журнал проблемы биологии и медицины. 2014 Aug 15(3 (79)):2-3.
2. Абдиев ТА, Сувонкулов УТ, Куркина ТН. Лечение эхинококкоза и других гельминтозов. Инфекция, иммунитет и фармакология. 1999:4.
3. Dosumbetovich, A. S., Uli, A. D. M., & Abdusalim, A. (2023). QORAQOLPOQSTON SHOROITIDA MAYDA UY HAYVONLARIDA NEMOTODA KASALLIGINING TARQALISHI. *Scientific Impulse*, 1(8), 43-47.4. Abatbaeva AM, Arziyev XY, Axmedov BN, Murodov XU. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QUSSHÍLÍQ XOJALÍQLARÍNDÁ MAREK KESELLIGINÍÑ JASQA BAYLANÍSLÍ DINAMIKASÍ: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223535>. InInternational scientific and practical conference 2024 Nov 15 (Vol. 1, No. 1, pp. 165-169).
5. Reynazarova NE, Murodov XU, Arziyev XY. QUSLAR JUQPALI LARINGOTRAXEIT KESELLIGINÍÑ ALDIN ALIW HÁM EMLEW: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223230>. InInternational scientific and practical conference 2024 Nov 15 (Vol. 1, No. 1, pp. 149-153).
6. Yuldashevich AK, Salomatovich TM, Ogli OD, Kizi AA, Amangeldiyevna MG. THE ROLE OF DEWORMING IN THE HEALTHY CARE OF HORSES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. 2022 Sep 30;2(09):85-9.
7. Arziyev KY, Togaymuradov MS, Allamurodov BP, Abdusamadov AA, Khudoyberdiev BK, Yusupov NB. The Role Of Anesthesia In The Prevention Of Cenurosis. *The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery*. 2021 May 12;3(03):1-7.
8. Arziyev KY, Rasulov SM, Togaymurodov MS. Blood Indications In Echinococcosis Of Large Horned Animals. *The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery*. 2021 Feb 27;3(01):9-15.
9. Абдиев Т, Сувонкулов У, Салимов Б, Вахобов Т, Арзиев Х. Научные основы профилактики эхинококкоза. Журнал проблемы биологии и медицины. 2016 Nov 14(4 (91)):200-2.
10. Абдиев Т, Саидахмедова Д, Сувонкулов У, Качугина Л, Вахобов Т, Абидов З, Арзиев Х. Клинические аспекты хронической посттравматической головной боли у детей и подростков. Журнал проблемы биологии и медицины. 2015 Nov 14(4, 1 (85)):8-9.



Date: 21stFebruary-2025

11. Erimov Sirijiddin Farhodovich, Djumaboev Abdurasul Baxt ugli, & Son of Mirzabekov Miyirbek O'mirbek ugli. (2023). «QUYON OTODEKTOZI»NING BIOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI, UNING SISTEMATIKADAGI O'RNI, LABORATORIYA DIGINOZI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (6), 132–140. <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/>
12. Farxodovich, E. S. (2023). DIXROSELIOZ QO'ZBARCHI SISTOGONIYASI PROGRESSIYASI BOSHQACHINING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (10), 70-77.
13. Erimov, S. F., Erimov, F. F., & Jumaniyozova, J. M. (2024 yil, noyabr). GASTROFILOYZ-OTLAR (EQUUS FERUS CABALLUS) HAVFLI ENTOMOZ KASALLIGI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222253>. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda* (1-jild, 1-son, 95-110-betlar).
14. Shakilov, U. N., Erimov, S. F., & O'ktamov, A. A. (2024, November). ATLAR GASTROFILOYZI QOZG'AWTIWSHILARINA EKOLOGIYALIQ FAKTORLAR TÁSIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14219999>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 78-84).
15. Erimov, S. F., Erimov, F. F., & Jumaniyozova, J. M. (2024, November). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI ARID IQLIM SHAROITIDA OTLAR GASTROFILOYZI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222297>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 110-116).
16. Shakilov, U. N., Erimov, S. F., & O'ktamov, A. A. (2024, November). GASTROFILOYZ KESELLIGI QOZG'AWTIWSHILARINA ANTIGELMINT DÁRI ÓNIMLERI TÁSIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14220032>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 84-88).
17. Farhodovich, E. S. (2024). OTLAR GASTROFILOYZI QO 'ZG'ATUVCHILARIGA EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(5), 186-191.
18. Farhodovich, E. S. (2024). GASTROFILOYZ KASALLIGI QO'ZG'ATUVCHILARIGA ANTIGELMINT DORI VOSITALARI TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(5), 181-185.
19. Erimov, S. F., Erimov, F. F. va Djumaniyazova, J. M. (2024). GASTROFILOYZ OTLARNING XAVFLI ENTOMOSIK KASALLASI (EQUUS FERUS CABALLUS). *DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI*, 56 (5), 174-178.
20. Erimov, S., Erimov, F., & Jumaniyozova, J. (2024 yil, noyabr). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURG'OQ IQLIM SHARTLARIDA OTLARNING GASTROFILOYZI. *TIBBIYO'T, FAN VA TA'LIM BO'YICHA XALQARO KONFERENSIYADA* (1-jild, No10, 63-70-betlar).



Date: 21stFebruary-2025

21. Erimov, S., Erimov, F., & Jumaniyozova, J. (2024). GASTROFILOZ-OTLAR (EQUUS FERUS CABALLUS)-HAVEN ENTOMOSIS. *Pedagogika fanlari shakllanishining nazariy jihatlar* , 3 (19), 127-133.
22. Farxodovich, E. S., & Arislanbek o'g'li, A. I. (2023). ARALSEEBUCHTDA QO'YLARNING ORIENTOBILGARSIOZI EPIZOOTOLOGIYASI. *Intent Research Scientific Journal* , 2 (10), 106-114.
23. Dauletabaev, N. P., & Tajimuratov, Q. (2024, November). YIRIK SHOXLI MOLLARDA PODODERMATIT KASALLIGINING ETIOPATOGENEZI, TARQALISHI VA UNI DAVOLASH: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222207>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 102-105).
24. Dauletboev, N. P. (2024). Turli xil tabiiy sharoitlarda kurkalarning tug'ruqdan keyingi ontogenez davrida oyoq suyaklari va mushaklarining morfometrik xususiyatlari adabiyotlarni ko'rib chiqish. *Fan va innovatsiyalar* , 3 (Maxsus 47-son), 698-701.

